

KUSHONLAR DAVLATI TASHQI SAVDO ALOQALARI

Ozodjon Eliboyev

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti 2-kurs magistranti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15628612>

Annotatsiya. Ushbu matnda miloddan oldingi II asrdan boshlab Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlarda yuz bergan yirik ko'chishlar, ayniqsa Kushonlar davlatining tashkil topishi va uning siyosiy, harbiy hamda iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Kushonlar davri markazlashgan boshqaruv, rivojlangan harbiy tizim, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning kengayishi bilan ajralib turadi. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishi va Kushonlar davlati tomonidan olib borilgan diplomatik aloqalar mintaqaviy barqarorlik va madaniy almashinuvga katta ta'sir ko'rsatganligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Yue-chji, Kushonlar, Sharqiy Turkiston, Buyuk Ipak yo'li, harbiy tizim, Savdo aloqalari, diplomatiya, Rim imperiyasi, siyosiy barqarorlik, karvon yo'llari, Taxil, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This text analyzes the major migrations in Eastern Turkestan and surrounding regions from the 2nd century BCE, focusing on the establishment and significance of the Kushan state. It highlights the Kushan's centralized governance, advanced military system, and the development of agriculture, crafts, and trade. The growth of the Great Silk Road and Kushan diplomatic relations are shown to have played a crucial role in regional stability and cultural exchange.

Keywords: Yue-chji, Kushans, Eastern Turkestan, Silk Road, military system, Trade relations, diplomacy, Roman Empire, political stability, caravan routes, Taxila, economic development

Аннотация. В данном тексте анализируются крупные миграции в Восточном Туркестане и прилегающих территориях с II века до н.э., с акцентом на становление и значение Кушанского государства. Отмечается централизованное управление Кушан, развитая военная система, а также развитие сельского хозяйства, ремесел и торговли. Развитие Великого шелкового пути и дипломатические отношения Кушан сыграли важную роль в обеспечении региональной стабильности и культурного обмена.

Ключевые слова: Юэчжи, Кушаны, Восточный Туркестан, Великий Шёлковый путь, военная система, Торговые связи, дипломатия, Римская империя, политическая стабильность, Караванные пути, Таксила, экономическое развитие.

Kirish

Miloddan oldingi II asrda sharqiy Turkiston va unga tutash hududlarda yirik ko'chishlar yuz berdi. Xususan Katta Yue-chji Xunlar siquvi ostida g'arba yurishga makonfederatsiyasi davridan boshlab, Turon hududlarida harbiy ustunlikka erishgan qudratli kuch sifatida tarix sahnasida namoyon bo'lgan. Ularning muvaffaqiyati, asosan, harbiy qo'shinlarning mukammal tashkiliy tuzilmasi, jangovar taktikasi va turli harbiy qurollaridan oqilona foydalanish natijasi edi. Ayniqsa, Kushonlar davlati tashkil topgach, yue-chjilar harbiy tizimi yanada takomillashib, keng hududlarni bosib olish va ularni nazorat ostida ushlab turish imkonini berdi.

Buning natijasida Turonning janubiy sarhadlarini egallagan yunonlar hukumronligiga batamom yo'q qilinishiga olib keldi. Milodiy I asrda yirik imperiyaga asos solindi.

Kushonlar davlati va Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishi

Kushonlar davlati qadimgi Sharqning eng qudratli va yirik davlatlaridan biri hisoblanadi.

Milodiy I asrning birinchi yarmida tashkil topgan bu davlat uch asr davomida Turonning katta qismini o'z ichiga olib, markazlashgan boshqaruv ostida birlashdi. Kushonlar davrida dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanib, shu bilan birga Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo faoliyati yanada kengaydi.

Buyuk Ipak yo'li Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Turon orqali Janubi-Sharqiy Turkiston hududlaridan o'tib, xalqaro savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi. Bu yo'l nafaqat savdo uchun, balki tranzit va diplomatik aloqalar uchun ham muhim bo'g'in vazifasini bajarib, hududda siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki berdi.

Iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi

Kushonlar davrida ko'plab yangi shaharlar barpo etilib, ularni bog'lovchi karvon yo'llari tarmog'i paydo bo'ldi. Shaharlar savdo, hunarmandchilik va diniy-mafkuraviy markaz sifatida rivojlandi. Dehqonchilik va hunarmandchilik yuqori darajada rivoj topib, sug'orma qishloq xo'jaligi ham keng tarqaldi. Bu holat davlat iqtisodiyotining asosini tashkil etdi.

Kushonlar o'z saltanatini mustahkamlash va xalqaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish, savdo va pul muomalasini tartibga soluvchi ko'plab chora-tadbirlar ko'rdi.

Tangalar muomalasining yo'lga qo'yilishi savdo va ayirboshlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etdi hamda iqtisodiy barqarorlikka xizmat qildi.

Diplomatik va savdo aloqalari

Kushonlar davlati Parfiya, Rim imperiyasi, Hindiston va Xitoy bilan siyosiy hamda iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Ayniqsa, shohi Kanishka va uning vorislari davrida Xitoy va Rim o'rtasida elchixonalar almashinuvi faol bo'lib, bu davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning mustahkamlanishiga olib keldi. Milodiy 99-yilda Kushon elchisi Rimga yuborilganligi bu aloqalarning mavjudligini dalolat beradi.

Arxeologik qazishmalardan olingan ma'lumotlar va "Periplus Maris Erythraei" asaridagi yozuvlar Kushonlar davridagi savdo yo'llari va siyosiy vaziyatni yoritadi. Mazkur asarda Hindiston, Qizil dengiz va Fors ko'rfazi portlari o'rtasidagi dengiz savdosi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Indus vodiysidagi Barbarikon port shahri va Skiflar poytaxti Minnagar haqida eslatib o'tiladi.

Taxiladagi arxeologik qazishmalar Parfiya hukmdori Gondofar vafotidan keyingi noaniq davrda (milodiy 46-yil atrofida) Kushonlar ta'sirining boshlanganligini ko'rsatadi. Taxminan milodiy 64-yildan boshlab Kushonlar bu hudud ustidan to'liq hukmronlik qilgan.

Buyuk Ipak yo'li va savdo aloqalari

Buyuk Ipak yo'li Kushonlar davrida muntazam ravishda ishlagan va O'rta Osiyo orqali Rimga qadar uzluksiz savdo tarmog'i shakllangan edi. Ipak, lak va boshqa mahsulotlar Xitoydan Turkiston orqali g'arbiy mamlakatlarga eksport qilingan bo'lsa, g'arbiy tomonlardan Xitoyga zotdor arqonlar, shisha idishlar va boshqa mahsulotlar yetkazilgan.

Ipak savdosi alohida ahamiyatga ega bo'lib, asosiy savdo mahsulotlaridan biri hisoblangan. Bu mahsulotlar ayirboshlash vositasi sifatida ham keng qo'llanilgan.

Harbiy va siyosiy munosabatlar

Kushonlar va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar vaqt-vaqti bilan mojarolar va urushlarga sabab bo'lsa-da, savdo va madaniy almashinuvlar rivojlangan. Xitoy-Kushon mojarolari ayniqsa Sharqiy Turkiston hududida yuzaga kelgan.

Kushon shohi Kanishka Xo'tan, Yorkent va Qashg'ar kabi muhim savdo nuqtalarini bosib olib, iqtisodiy va madaniy aloqalar uchun qulay sharoit yaratdi.

230-yilda Kushon shohi Vasudeva tomonidan Xitoy Vey sulolasiga yuborilgan elchilik missiyasi bu diplomatik aloqalarni tasdiqlaydi.

Savdo yo'llarining shakllanishi

Kushonlar davrida Yaqin Sharq, Misr, Rim va Kichik Osiyo kabi hududlarni bog'lovchi karvon yo'llari asosan Parfiya podsholigi hududidan o'tgan. Parfiya bu hududda ipak savdosini monopoliyaga olishga intilib, Rim va Xitoy savdogarlarining o'z hududidan o'tishiga to'sqinlik qilgan.

Shu sababli, yangi savdo yo'llari Parfiya hududini aylanib o'tgan. Ularning biri Shimoliy Hindistondan dengiz yo'li orqali O'rta yer dengiziga olib borgan, ikkinchisi esa Xitoydan Sharqiy Turkiston orqali Vaxon yo'lagi va Pomir tog'lari orqali Qorategin orqali Baqtriyadan Hindiston portlariga, u yerdan Arab dengizi orqali Misr va Rim imperiyasiga olib boruvchi dengiz yo'li orqali savdo amalga oshirilgan.

Xulosa

Miloddan oldingi II asrda Sharqiy Turkiston va atrofidagi hududlarda yirik ko'chishlar va harbiy kuchlarning o'zgarishi sodir bo'ldi. Katta Yue-chji Xunlar siquvida qolib, Turon hududlarida kuchli harbiy tizim va taktikaga ega bo'lgan Kushonlar davlati tashkil topdi.

Kushonlar Turon hududlarini markazlashgan boshqaruv ostida birlashtirib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirdi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro savdo va madaniy almashinuvlar kengaydi, bu hududda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'ldi.

Kushonlar Parfiya, Rim, Hindiston va Xitoy bilan faol diplomatik va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Ular o'z saltanatlarini mustahkamlash uchun pul muomalasi va savdo tizimini yaxshiladi. Buyuk Ipak yo'li orqali ko'plab mahsulotlar, jumladan ipak va boshqa tovarlar uzluksiz almashindi, bu esa mintaqani xalqaro savdo markaziga aylantirdi.

Harbiy va siyosiy jihatdan, Kushonlar Xitoy bilan ba'zan mojaro qilgan bo'lsa-da, savdo va madaniy aloqalar rivojlandi. Savdo yo'llari Parfiya hududini aylanib o'tib, dengiz va quruqlik orqali Yaqin Sharq, Hindiston va Rim imperiyalarini bog'ladi.

Umuman olganda, Kushonlar davri Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning yangi bosqichga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi va Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

REFERENCES

1. Tixonov D.I. Cultural relations of the peoples Central Asia with the Kus'hans. Central Asia during the Kus'han period. Tom II, M., 1975.
2. Mavlonov O. The ancient ways of Central Asia. T. 2008.
3. Ртвеладзе Э. В. Кушанское царство: династии, государство, народ, язык, письменность, религии. Ташкент, 2019.
4. Хўжайев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи: манбалари туркистон Хитой ёзма манбаларид. Тошкент. 2024